

YANGI SIRDARYO

Jamiyat – islohotlar
tashabbuskori



GAZETA 1963-YIL 1-IYUNDAN “SIRDARYO HAQIQATI” NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

@yangisirdaryogazetasi

Yangi Sirdaryo 24

• Ijtimoiy-siyosiy, ommaviy gazeta 16-SON (11710) 28-APREL, 2025-YIL DUSHANBA sirdaryo24.uz

@yangisirdaryogazetasi

Yangi Sirdaryo Gazetasi

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-iyundagi “O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroridan keyin viloyatimizning chekka hududida go‘zal bir ma‘naviy maskan qad rostladi. Ayni choqda bu yerdan adabiyot muhiblarining oyog‘i uzilmaydi. Shoir uy-muzeyini ziyorat qilish uchun turli go‘shalardan odamlar oqib kelishmoqda.

Tadbir

“KETMA, BAHOR, MENING BOG‘IMDAN”



Bugun To‘ra Sulaymon uy-muzeyiga mamlakatimizning boshkenti Toshkent shahridan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari G‘ayrat Majid boshchiligidagi bir guruh adiblar tashrif buyurishdi. Dastlab mehmonlar shoir haykali poyiga anvoyi guldastalar qo‘ydilar. To‘ra Sulaymon ruhi pokiga ta‘zim bajo keltirdilar.

So‘ngra shoir o‘tqazgan azim tut soyasiga o‘rnatilgan so‘rilardan joy olgan mehmonlar, viloyatimiz ijodkorlari, To‘ra akaning qavmu qarindoshlari, mahalla ahli “Ketma bahor, mening bog‘imdan” deb nomlangan madaniy-ma‘rifiy tadbirini jon quloqlari bilan tingladilar. Anjumanni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Sirdaryo viloyat bo‘limining rahbari Noriniso Qosimova kirish so‘zi bilan ochdi.

Tadbirida shoirning hayoti va ijodi haqida ko‘p va xo‘p gaplar aytiladi. Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi direktori, senator Pokiza Axmedjanova, G‘ayrat Majid, O‘zbekiston xalq

(Davomi 2-betda)

Qaynoq jabhada

HAR JABHADA TARAQQIYOT BO‘LISHI UCHUN

Bugungi kunda vohamizning barcha tuman, shahar va qishloqlarini har jihatdan rivojlantirish bo‘yicha viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Erkinjon Turdimov boshchiligidagi chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu munosabat bilan viloyat rahbari bugun Mirzaobod tumani mas‘ullari ishtirokida tuman markazidagi “Navro‘z” mahallasini obodonlashtirish, aholi uchun qulay



O‘z navbatida Erkinjon Turdimov haftaning har dushanba kuni tadbirkorlar va ishbilamonlar bilan doimiy uchrashuvini o‘tkazib kelmoqda. Bugungi uchrashuvda 48 nafar tadbirkordan qabul qilingan murojaatlar ro‘yxatga olinib, mas‘ullar tomonidan hafta davomida 40 nafar tadbirkorning 47 ta muammosiga ijobiy yechim topildi.

8 nafar tadbirkorning muammolari birma-bir muhokama qilindi. Bildirilgan 14 ta muammo bo‘yicha aniq muddat bilan mas‘ullar birlashtirilib, ijrosi nazoratga olindi.

Bunday uchrashuvlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad tadbirkorlarning oldida turgan muammolarga yechim topish qolaversa, viloyatni har sohada rivojlantirishda ularning imkoniyatlari va salohiyatlaridan unumli foydalanishdir.

Viloyat hokimligi Axborot xizmati

Har bir muassasa va tashkilotning o‘z oldiga qo‘ygan rejalari bisyor. Biroq amalga oshirilgan ishlar vazifalarni uddalayotganligimizdan dalolat beradi. Shu boisdan Guliston davlat pedagogika institutida matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbirida institutning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Nurbek Ayaqulov bajarilgan ishlar xususida so‘z yuritdi.

Ma‘lum bo‘lishicha, oliygohda QS va THE xalqaro reyting tashkilotlarining TOP-300 ro‘yxatiga kirgan oliy ta‘lim tashkilotlarining ta‘lim dasturlari tahlil qilinib, 14 ta bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va 3 ta magistratura mutaxassisliklarining ta‘lim dasturlari takomillashtirildi.

Viloyatimizdagi umumta‘lim maktablarida kasbga yo‘naltirish ishlari olib borildi va pedagogika sohasiga qiziqishi bor o‘quvchilar aniqlandi. 144 nafar talaba haq to‘lanadigan amaliyotga jalb qilindi. Registrator ofisi faoliyati yo‘lga qo‘yildi va talabalarga qo‘shimcha qulayliklar yaratildi.

Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi tomonidan 2025-yilning 1-choragida turli tanlov va musobaqalar (fan-ta‘lim, badiiy, san‘at, ijodiy, sport

Oliy ta‘lim tizimida

INTILISHLAR SAMARASI



yo‘nalishlari) ga talabalar jalb etilib, g‘olib va sovrindor talabalar to‘g‘risida ma‘lumotlar bazasi shakllantirildi.

“Talabalar teatr studiya”si, “Ma‘rifat maydoni”, “Men chizgan surat”, “Notiqlik san‘ati”, “Amaliy san‘at” va “Eng yaxshi kitobxon” tanlovi kabi tanlovlar tashkil qilingan. Institutda talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, to‘garaklar

faoliyati va ma‘naviy-ma‘rifiy, huquqiy hamda sport tadbirlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni aniq reja va dasturlar asosida amalga oshirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilab olingan.

Oliyogohda sport va san‘at yo‘nalishida va ijodiy yo‘nalishda to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. “Zakovat” klubi, to‘garaklar va klublar faoliyat ko‘rsatmoqda. “Kitobxon talaba” tanlovida 12 nafar g‘oliblar rag‘batlantirildi. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan mavzularda huquqiy-profilaktik tadbirlar tashkil qilindi va “Teatr kuni” doirasida tashriflar amalga oshirildi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoniga asosan “Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, ijtimoiy soha subyektlarida quyosh panellarini

o‘rnatishni keng joriy qilish topshiriqlari berilgan bo‘lib, institutda 2025-yilning 1-choragida jami 95 kVt quvvatga ega bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi “Respublika oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 563-sonli qaroriga va boshqa qonunosti hujjatlarga asosan institutda davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkor “New Hous City” MCHJ tomonidan 400 o‘rinli talabalar turar joyi binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. Ushbu binoni foydalanishga topshirish bilan talabalarining turar joy bilan ta‘minlash darajasi 46,2 foizga yetkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-404-sonli qarori bilan tasdiqlangan investitsiya dasturiga asosan “SIFAT KAFOLAT STANDART SERVIS” XK tomonidan 1000 o‘rinli o‘quv binosi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Institutda Xirsh indeksi (h-indeksi) ≥ 3 bo‘lgan professor-o‘qituvchilar soni 2023-yilda 4 nafar, 2024-yilda 12 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda maqsadli ko‘rsatkich 21 nafarga yetkazish ko‘zda tutilgan.

(Davomi 2-betda)

“KETMA, BAHOR, MENING BOG‘IMDAN”

(Boshlanishi 1-betda.)

Yozuvchisi Muhammad Ali, filologiya fanlari doktori, professor Adhambek Alimbekov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoira Muhtarama Ulug‘ova, Guliston davlat universiteti professori Ravshanbek Mahmudov, shoira Zamira Ro‘ziyeva, mehnat faxriysi Bashorat Botirova va boshqalar shoir haqida dil so‘zlarini izhor qildilar.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a‘zolari Ravshanbek Mahmudov va Munavvar Pardayevlar yangi bosmadan chiqqan kitoblarini

uy-muzey kutubxonasiga sovg‘a qildilar.

So‘ngra “To‘ra Sulaymon zamondoshlari xotirasida” kitobining taqdimoti bo‘ldi.

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘quvchilari shoir she‘rlaridan tayyorlangan nazmiy guldastani anjuman ishtirokchilariga taqdim etishdi. Guliston davlat universiteti dotsenti, xushovoz hofiz Abdurahim Sultonov shoir she‘rlari bilan aytiladigan qo‘shiqlarni xonish qildi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy anjumaniga Sirdaryo viloyati maqomchilar dastasi xonanda va sozandalari o‘zlarining



mumtoz kuy va qo‘shiqlari bilan o‘zgacha ruh bag‘ishladilar.

Anjuman adog‘ida shoir ruhi pokiga Qur‘on tilovati qilindi.

Tadbir qatnashchilari shoir uy-muzeyi adabiy anjumanlar o‘tadigan markazga aylanishi lozimligini ta’kidladilar.

Muhammadali AHMAD

Tasvirlarda: tadbirdan lavhalar.

Muallif olgan suratlar



(Boshlanishi 1-betda.)

2025-yilda ilmiy salohiyatni oshirish maqsadlida 8 nafar (PhD), 4 nafar (DSc) va 4 nafar dotsent unvonini olish rejalashtirilgan.

2025-yil uchun 19 ta (2 ta DSc, 16 ta PhD va 1 ta stajyor-tadqiqotchi) kvota ajratilgan bo‘lib, 2025-yil 3-yanvar holatiga institutda jami 24 nafar tayanch doktorantlar (PhD), 1 nafar (DSc) va 1 nafar stajyor tadqiqotchilar 6 ta ixtisoslik kesimida oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli institutiga o‘qishga qabul qilingan.

Institutda oliy ta’limdan keyingi ta’lim shaklini tashkil

INTILISHLAR SAMARASI



etish bo‘yicha shart-sharoitlar yaratilgan.

2025-yil uchun jami 5 ta ilmiy-texnik tadbirlar rejalashtirilgan bo‘lib, shundan 2 tasi xalqaro, 3 tasi respublika miqyosida o‘tkaziladi.

Tadbir davomida OAV

vakillari, bloggerlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar va institutda bajarilgan ishlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishga ham muvaffaq bo‘ldilar.

Xurshida NISHONOVA,
Istam ZAXIROV

Tanqid va munosabat

“GULISTON KO‘CHA” DEB YOZILADIMI YOKI “GULISTON KO‘CHASI”?

“Yangi Sirdaryo” gazetasining joriy yil 7-apreldagi 13-sonida “Barchamiz daxldormiz” sarlavhali maqola chop etilgan edi. Ushbu maqolaning bir bo‘limi “Profilaktika inspektori profilaktikaga muhtoj(mi?)” deya nomlangan bo‘lib, unda Sirdaryo tumanidagi “Sholikor” mahallasi profilaktika inspektorining profilaktikaga muhtojligi bayon qilingan edi.

Ushbu holat yuzasidan tahririyatga viloyat IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi tomonidan maqolada nomi keltirib o‘tilgan profilaktika inspektori bilan profilaktik ishlar amalga oshirilganligi haqida boshqarma JXX boshlig‘ining o‘rinbosari—HPB boshlig‘i, podpolkovnik A. Mirzaqulov imzosi bilan 17-aprel kuni 7/633-sonli munosabat bildirildi.

Gazetamizning 14-apreldagi 14-sonida



esa “Gulistonning shoxdor ko‘chalari” sarlavhali felyetonda esa Guliston shahridagi ko‘chalardan birining nomlanishidagi xatolik tanqid ostiga olingan edi.



Mazkur tanqidga nisbatan viloyat IIB jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i Sh. Abdunazarov imzosi bilan gazetada keltirilgan ko‘cha nomlaridagi xatoliklar bartaraf etilganligi haqida 15-aprel 10/9-1494-sonli munosabat xati yuborildi.

Mana shu holatda jurnalist davlatning ko‘zgusi, jamiyatning ko‘zi, davlat va jamiyat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaruvchi ekanligi yana bir karra oydinlashadi.

• Inson qadri ulug‘

HAR BIR MUAMMONING YECHIMI BOR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalariga Yangiyer shahar aholisidan joriy yilning 1-choragida jami 781 ta murojaat (2024-yilning shu davrida 899 ta) kelib tushgan bo‘lib, mazkur murojaatlarning 692 tasi qanoatlantirildi yoki 88,6 foizi o‘z yechimini topgan.

Aholi bilan o‘tkazilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotlar natijasida bir qancha sohalarida murojaatlar soni kamayishiga erishildi. Xususan, elektr energiyasi ta‘minotidagi uzilishlar masalasi 19 (12) ta yoki 36,8 foizga kamaygan, mol-mulk va pul mablag‘larini qaytarmaslik masalasi 10 (13) ta yoki 30,0 foizga kamaygan. Uy-joy ta‘mirlash va qurish uchun yordam masalasi 7 (9) ta yoki 28,0 foizga kamaygan, XUJMSH va boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatidan norozilik 9 (11) ta yoki 22,2 foizga kamaygan, davolanish va jarrohlik amaliyoti uchun moddiy yordam 17 (20) ta yoki 17,6 foizga kamaygan, muhtojlarga bir martalik moddiy yordam 27 (29) ta yoki 7,4 foizga kamaygan.

2025-yilning o‘tgan davri mobaynida 44 ta sayyor qabul o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, tashkilotlar rahbarlari tomonidan sayyor qabullar o‘tkazildi. Qabullar davomida 217 ta masalada fuqarolarning murojaatlari kelib tushgan bo‘lib, ushbu murojaatlarning 192 tasi yoki 88,4 foizi qanoatlantirildi, muddat talab etiladigan murojaatlar bo‘yicha alohida nazoratga olinib, ularning yechimini topish yuzasidan mas‘ullar belgilab olindi.

Xususan, o‘tgan davr davomida 91 nafar fuqaroning doimiy ish bilan bandligi ta‘minlangan bo‘lsa, 11 nafar fuqaroga 23 million so‘mlik turli xil yo‘nalishlarda ijtimoiy yordamlar ko‘rsatildi. 48 nafar fuqaroga sog‘lig‘ini tiklash uchun order berilib, 62 nafar fuqaro bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Hozirgi kunlarda “Yangiobod” mahallasida 0,570 kilometr masofadagi ichki yo‘llarga asfalt yotqizish ishlari amalga oshirildi. “Yangiobod” mahallasi aholisi tomorqadan samarali foydalanishi uchun 2 ta quduq kovlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bu bilan mahalladagi 300 dan ortiq xonadonlarni oqova suv bilan ta‘minlash ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu xonadon egalari o‘z tomorqalaridan samarali foydalangan holda o‘zlarining daromadlarini oshirishga katta imkoniyat yaratilmoqda.

Shuningdek, “Navro‘zobod” mahallasida ham 1 ta quduq kovlash ishlari boshlab yuborilgan. Mahalla hududidagi 5 gektarga yaqin bo‘sh yer maydonini mahalladagi kambag‘al oilalarga bo‘lib bergan holda ularning daromadini oshirish bo‘yicha ishlar boshlab yuborilgan.

Yangi O‘zbekistonning Xalq qabulxonalari bugun fidoyi xalqimizning tom ma‘nodagi dardu tashvishini tinglab, quvonchlariga sherik bo‘ladigan, ular duch kelayotgan muammolari ishonchli hal etadigan o‘ziga xos tuzilmaga aylandi. Hokimiyat va xalq o‘rtasida ochiq, shaffof muloqot qilish tizimi yaratildi. Bunday ezgu ishlar joylarda qonun ustuvorligini ta‘minlab, odamlarni rozi qilish, yaxshi turmush kechirishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo‘lmoqda.

I. RAHMONQULOV,
Yangiyer shahridagi Xalq qabulxonasi mudiri



nomlaridagi xatoliklar yoki jumalarning oxiriga yetkazilmaganligini, turli joylarda turlicha yozilganligini birma-bir yozib chiqmasak, to‘g‘ri bo‘lmaydimi? Bu safar yozib o‘tirmasdan rasmini keltirib qo‘ya qolamiz. Negaki, bu haqda avval ham yozganmiz.

Har kuni minglab odamlar ko‘zi tushadigan bu kabi xatoliklar yoki bepisandliklarga kim yoki kimlar mas‘ul?..

B. BOYMURODOV

9-may—Xotira va qadrlash kuni oldidan

IBRATLI USTOZ EDI

Inson – hayotning gultoji. Uning qadri, hurmati har doim e‘zozga loyiq. Xalqimizga xos xislatlar haqida gapiradigan bo‘lsak, albatta, qadr-qimmat, mehr-oqibat kabi fazilatlar tilga olinadi.


Inson borki, hayoti davomida ortda iz qoldirishni, atrofdagilarning yodida saqlanishni istaydi. Shunday ezgu maqsadlarga sodiq insonlardan biri A‘zamqul Xojiyev edi. U kishi o‘zining hayot yo‘lida mehnatda fidoyiligi va insoniy fazilatlarini tufayli yurtdoshlarimiz uchun ibrat bo‘la olgan edi.

A. Hojiyevning hayot yo‘liga nazar solsak, bir qancha pog‘onalarni bosib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin. Toshkent avtomobil yo‘llari institutini bitirgach, 1979 yildan Sirdaryo viloyati avtomobil maktabida o‘qituvchi vazifasida ishladi. 1983-1986 yillarda viloyat davlat avtomobil nazorati boshqarmasining davlat avtomobil nazorati inspektori, alohida rota komandirining siyosiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. O‘sha davrdan boshlab A‘zamqul aka ichki ishlar tizimi sohasiga kirib keldi va o‘z burchini sidqidildan bajardi. 1994 yili Toshkent davlat yuridik institutini sirtidan tugatib, qonunchilik sohasidagi yetuk mutaxassis bo‘lib shakllandi. Keyinchalik viloyat ichki ishlar boshqarmasi shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmati boshlig‘ining o‘rinbosari sifatida ish boshladi. Hamkorlik qilgan yillar mobaynida A‘zam aka har birimizga yaqin qadrdon bo‘lib qolgandi. U o‘z ishiga chin dildan yondoshar, vazifasini mas‘uliyat va fidoyilik bilan bajarardi.

A. Hojiyev yosh kadrlar uchun nafaqat ustoz, balki oqilona maslahatlar beruvchi samimiy inson edi.

U kishi O‘ktam Usmonov, Alisher Usmonov, Odil Ziyayev singari respublika miqyosidagi shogirdlarni yetishtirib, ularning yutuqlaridan faxrlanardi. A‘zamqul akaning tarbiyasini olgan Hamid Abdullayev hozirda Jizzax viloyati IIB boshlig‘i o‘rinbosari lavozimida ishlayapti.

A. Hojiyev boshqa



lavozimlarda, jumladan, O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi Sirdaryo hududiy boshqarmasi boshlig‘i lavozimida ishlaganida ham o‘z burchiga sodiq qoldi.

A‘zamqul aka umr yo‘ldoshi Saltanat aya bilan birga farzandlariga yaxshi tarbiya bergan edi. Bugungi kunda viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sho‘basi mudiri bo‘lib ishlayotgan Subanjon, tadbirkor Azimjon, qizi Dिल्fuza ham otasining xotirasini dillariga jo etib, farzandlik sadoqatini namoyon etishayapti.

A‘zamqul Hojiyevning ortidan sog‘inch va yorqin xotira qoldirdi. Uning hayoti va faoliyati nafaqat oilasi, balki uni tanigan insonlar uchun ibrat maktabi bo‘lib qoladi.

BIR OQIBAT YASHAYDI...

Armonlidir armon bu dunyo, Abadiymiz biz bunda go‘yo. Qadrdonlar tirilsa, qaytsa, Qani bo‘lsa tilagim ro‘yo.


A‘zam aka biz uchun tirik, O‘g‘il, qizda, bizda yashaydi. Dasturxonda doimo birga, Duomizdan ruhi oshaydi.

Bildik hayot beshafqat bunda, Bir biringiz qadrlang kunda. Bizdan qolib mehru muhabbat, Bir oqibat yashaydi shunda.

Shuhrat XUSHMURATOV,
Guliston tumani
Mahallalar uyushmasi raisi.

Viloyat Ma‘naviyat va ma‘rifat markazida axborot-kutubxona markazi tomonidan tashkil etilgan “O‘zbekiston—kitobxonlar yurti” V “Kitobxonlik haftaligi” doirasida shoira Hayotxon Ortiqboyeva xotirasiga bag‘ishlab “Sirdaryo farzandi” deb nomlangan tadbir bo‘lib o‘tdi. Dastlab markazning sektor mudiri Xurshida Risqulova so‘z olib, shoiraning qoldirgan adabiy merosi kitobxonlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilayotganini e‘tirof e‘tdi.

So‘ngra iste‘dodli ijodkorning shogirdlari—O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi rahbari Noriniso Qosimova, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari Bahor Xolbekova, Dilorom Ismadiyeva va ijodkor Yanglish Hasanova ustoz xotirasini yod etib, u kishining ibratli insoniy fazilatlarini va yorqin ijodi xususida so‘z yuritishdi. Shuningdek, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi viloyat bo‘limi



V Respublika “Kitobxonlik haftaligi” kunlarida O‘zbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalari a‘zosi, “Shuhrat” medali sohibasi Dilorom Ismadiyeva o‘zining bir necha nomdagi kitoblardan kutubxonalarga tuhfa qildi. Ijodkorning hozirgacha ziyo maskanlari, harbiy qismlar, ta‘lim muassasalari, mahallalar hamda kitobxonlarga taqdim

• Haftalik doirasida

Shoira xotirasiga bag‘ishlandi



mutaxassisi Gulxan Ochilova H. Ortiqboyeva bilan bog‘liq xotiralarini so‘zlab berdi.

Tadbirda viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi vakillari, Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining o‘quvchilari va Guliston shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan san‘at maktabining o‘qituvchi va o‘quvchilari ishtirok etishdi. Ijod maktabining

o‘quvchilari o‘z navbatida Hayotxon Ortiqboyevaning qalamiga mansub she‘rlardan namunalarni yoddan aytishdi. San‘at maktabining o‘qituvchi va o‘quvchilari ijrosida yanragan dilrabo kuy va qo‘shiqlar davraga fayz kiritdi.

Hasan ABDUVOHIDOV

Suratda: tadbirdan lavha
Tasvirchi: Istam ZAXIROV

Mohiyat

Sirdaryolik ijodkor 1000 ta kitobini sovg‘a qildi

So‘nggi yillarda Sirdaryo viloyatida ijod qilayotgan jurnalist, shoir va yozuvchilarning kutubxonalarga yangi nashr etilgan kitoblaridan o‘nlab nusxada sovg‘a qilishi ko‘p kuzatilmoqda.

etgan to‘plamlari 1000 nusxadan oshdi.

— Dilorom Ismadiyevonaning “Sirdaryocha to‘y qilamiz”, “Sirdaryoga qo‘nib o‘ting, do‘stlarim”, “Sirdaryoning bo‘ylarida uylarimiz” deb nomlangan kitoblari foydalanuvchilarimiz tomonidan eng ko‘p o‘qilayotgan adabiyotlar sirasidan, — deydi Sirdaryo viloyati bolalar kutubxonasi direktori Shoira Shukurova. — E‘tirof etish lozimki, ushbu to‘plamdagi hayotiy va xalqchil ruhda asarlarning yosh avlod uchun tarbiyaviy-ma‘rifiy ahamiyati juda katta. Shu o‘rinda Dilorom Ismadiyeva kabi yana ko‘plab ijodkorlar ham yangi

chiqqan kitoblardan bir necha nusxasini kutubxonalar uchun ajratayotgani juda ibratli ish bo‘layotganini ta‘kidlashni lozim deb o‘ylayman.

Binobarin kutubxonaga kitob sovg‘a qilishning bir emas, bir necha foydasi borki, avvalo, bu maskan javoniga tushgan adabiyotni ko‘pchilik o‘qiydi, o‘z navbatida ayni jihat muallif nomini tanitadi, unga rahmat va olqish olib keladi. Qolaversa, kutubxonadagi har qanday adabiyot asrab-avaylab saqlanadi va u asrlar osha qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qiladi, tokchada o‘quvchisini kutib, sarg‘ayib turmaydi.

Ahmadali
SHERNAZAROV,
“Xalq so‘zi”.

“ZAKOVAT” VA XALQARO OLIMPIADA

“Zakovat” so‘zining ma‘nosi: sezgirlik, aqllilik, farosat, zakiylilik degan ma‘nolarga ega. O‘yinning bunday nomlanishi uning g‘oyasiga to‘la mos keladi.

Yurtimizda “Zakovat” intellektual o‘yinlari 2001-yildan beri o‘tkazib kelinmoqda. Zamon talabi va ehtiyojlarga ko‘ra, o‘yin takomillashtirilib, yanada ommalashtirildi va endilikda mahalla, maktab, ta‘lim muassasalarida yoshlarning aqlini charxlash uchun unumli foydalanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi “Zakovat” intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-ma‘rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida “Zakovat” intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-

ma‘rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi.

Maqsad o‘quvchilarda intellektual salohiyatni yanada yuksaltirishdir.

Joriy yilning 14-18-aprel kunlari umumta‘lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasidagi “Zakovat” intellektual o‘yining tuman (shahar) bosqichi bo‘lib o‘tdi va g‘olib bo‘lgan maktablar o‘quvchilari musobaqaning hududiy bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritishdi. 23-aprel kuni umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasidagi “Zakovat” musobaqasining viloyat hududiy saralash bosqichi bo‘lib o‘tdi. Jami 31 ta jamoa 30 ta savoldan iborat bo‘lgan uch tur bo‘yicha bellashdilar. Sirdaryo viloyati bosqichida eng yuqori natija ko‘rsatgan 3 tadan jamoa musobaqaning respublika bosqichiga yo‘l olishdi.



Yakunga ko‘ra, 1-o‘rin Sardoba tumani 6-umumta‘lim maktabi jamoasiga, 2-o‘rin Oqoltin tumani 7-umumta‘lim maktabi jamoasiga, 3-o‘rin Guliston shahridagi 17-sonli umumta‘lim maktabi jamoasiga nasib etdi.

Musobaqaning Respublika bosqichi joriy yilning 11-may kuni bo‘lib o‘tadi. Respublikada g‘olib bo‘lgan 3 ta o‘ringa 100, 60, 40 million so‘m pul mukofotlari qo‘yilgan.

Barchamizni quvontiradigan yana bir jihat 21-25-aprel

• Yosh zukkolar



kunlari 15 ga yaqin davlatlardan 250 ga yaqin o‘quvchilar ishtirok etishgan Turkmanistonning Ashxobod shahrida II Xalqaro matematika olimpiadasida O‘zbekiston terma jamoasi 4 ta oltin, 9 ta kumush, 4 ta bronza — jami 17 medallarni qo‘lga kiritdi. Sirdaryolik o‘quvchilar 1 ta oltin, 2 ta bronza medalni qo‘lga kiritishdi.

Oltin medal sohibi: Guliston shahar 2-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati 9-sinf o‘quvchisi Azizbek Mamajonov.

Bronza medal sohiblari: Guliston shahar 2-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati 11-sinf o‘quvchisi Behruz Boymurodov hamda R.Bosimov xususiy maktab 10-sinf o‘quvchisi Sardor O‘razaliyev.

Barcha g‘oliblarni tabriklaymiz. Yoshlarimizga Sirdaryo viloyati sha‘nini respublika va xalqaro maydonlarda munosib himoya qilishlarida omad tilab qolamiz.

Viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi
Axborot xizmati



Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabida Toshkent va Sirdaryo viloyatlari yosh ijodkorlarining an’anaviy Zomin seminari hududiy bosqichi bo’lib o’tdi. Unda yosh iste’dodlar nasr, nazm, bolalar adabiyoti, badiiy tarjima, dramaturgiya va badiiy publisistika yo’nalishlarida o’zaro bahslashdilar.

• Jarayon

ZOMIN SEMINARIGA OQ YO’L

Dastlab anjuman ishtirokchilari ijod maktabi bo’ylab sayru sayohat qilishdi. Yosh ijodkorlar maktab qoshida tashkil etilgan Halima Xudoyberdiyeva muzeyini ko’zdan kechirdilar. So’ngra jadiclar burchagi va bog’ni aylandilar.

Seminarining hududiy bosqichi esda qoladigan voqea bilan boshlandi. O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Nazm kengashining raisi, Senator, O’zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zolariga qabul qilingan 5 nafar sirdaryolik ijodkorlarga tantanali ravishda a’zolik guvohnomalarini topshirdi. Yangi a’zolar orasida Guliston davlat universitetining professorlari, filologiya fanlari doktorlari Muzaffar Mamatqulov, Obida Fayzullayeva, O’zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo’limining yetakchi mutaxassisi, publisist Dilorom Ismadiyeva, boyovutlik shoira Sayyora Ernazarova va xovoslik kekxa g’azalxon Davlat Tursunlar bor.

Anjumanda uyushmaning yangi a’zolari D. Ismadiyeva, M. Mamatqulov va D. Tursunlar so’z olib, milliy adabiyotimizga sadoqat bilan xizmat qilishlarini ochiqdilar. Davlat Tursun Vatan haqidagi she’rini o’qib berdi. Mahmud Toir she’rxonlikni davom ettirib, o’zining go’zal ijod namunalarini seminar qatnashchilariga taqdim etdi.

So’ngra yosh ijodkorlar sho’balarga bo’linib, Toshkent shahridan tashrif buyurgan nufuzli hay’at a’zolarining sinovlaridan o’tishdi. Adiblar Muhammad Ismoil, Nargiza Asadova, Nodira Ibrohimova, Erkin Hojimuhammadlar sho’balarda yosh ijodkorlarning asarlarini eshitibgina qolmay, balki ularga ijodiy saboqlar va maslahatlar ham berdilar. Kamina Nazm sho’basida ishtirok etib, bo’lajak shoirlarning ijod namunalaridan bahramand bo’ldim.

Seminar yakunida so’z olgan Mahmud Toir, Muhammad Ismoil, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Sirdaryo viloyat bo’limi rahbari Noriniso Qosimova, Guliston davlat universiteti professori Ravshanbek Mahmudov, Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi direktori, Senator Pokiza Axmedjanova va boshqalar yosh ijodkorlarga ijodiy muvaffaqiyatlar tilashdi.

Viloyat hokimining muovini Shohruh Isoqulov hay’at a’zolari va adabiyotimiz kelajagi sanalmish yosh



ijodkorlarga viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Erkinjon Turdimovning tabrigini yetkazdi va esdalik sovg’alarini topshirdi.

Seminar yakunida yosh ijodkorlarga sertifikatlar berildi.

Muhammadali AHMAD
Tasvirlarda: tadbiridan lavhalar
Suratlar muallifniki

• Mulohaza

OLTIN KAPGIR AYLANAVERADI...

Odamzodga baxshida etilgan eng ulug’ nemat – umr. Uning qiymatini esa to’laqonli anglab yetmoq zarur. Chunki biz uchun eng arzon tuyulgan narsalar hayotimizning eng bebaho bo’lagi bo’ladi, aslida.

“Qadimda bir donishmand aytgan ekan: “Men vaqtning nima ekanligini bilaman. Ammo “Vaqt nima?” deb so’rasalar, aytolmayman”. Darhaqiqat, bu savol – har birimizning ko’nglimizda javobsiz kezuvchi so’roqlardan biri. Xo’sh, siz bunga qanday javob bergan bo’lardingiz? Uning qadr-qimmatini qanday baholaysiz?”

Aslini olganda, vaqt ko’zimizga ko’rinmaydigan, ammo ko’z oldimizda ro’y berayotgan jarayonlarga hukmronlik qiluvchi murakkab tushuncha. Uni turlicha qabul qilish mumkin. Kimdir uni yaxshi yashash, o’zi xohlagan hayotini yaratish uchun imkoniyat deb fahmlasa, yana kimdir uni maqsadli umr poygasidagi eng kuchli raqib deb hisoblaydi. Mag’lub bo’lmaslik uchun kurashib yashaydi. Bosib o’tgan yo’llarimiz ana shunday kurashlardan iborat. Ba’zida bu quvvat olmas soatning o’tkir millari bizni jarohatlashi, yengishi va yuragimizda afsuslarni paydo qilishi mumkin. Insonning eng katta zaifligi – vaqt kelishini kutishi. Bunday kutishning natijasi faqat yutqazish bo’ladi.

Chunki vaqt kelmaydi, ketaveradi. Yoki shu oqimda kemangizni olg’irlik bilan oldinga olib o’tasiz, yoki oqimga o’zingizni topshirib, g’arq bo’lasiz.

Atrofimizda turfa xil fe’l-atvorli insonlar bor. Ular orasida tutqich bermas vaqtning ziqligini o’z e’tiborsizliklari uchun niqob qilib olganlar ham uchraydi. Darhaqiqat, vaqtning tutib, to’xtatib bo’lmaydi. Bizning diqqatimizga mushtok odamlar bor. O’zingizni yiroq tutganingiz qadar bu ehtiyoj ham, so’nggi pushaymonning zahri ham ortib boraveradi. Axir aytishadi-ku, “sen yaqinlaringga vaqt ajratmasang, vaqt seni ulardan ajratadi”, deb. To’g’ri, har bir o’tkinchi lahzaning hisobi bor. Ammo hech bir omil, zarurat yaqinlar o’rtasiga mehr rishtalarining tutashuviga to’sqinlik qilmasligi kerak, nazarimda. Chunki yo’qotilgach, qayta topib bo’lmas narsalarning biri diydordir. Shunday ekan, yuragimizda adadsiz bo’lgan mehnri hech qanday bahonalarsiz, vaqt bilan kurashib bo’lsa-da, ehtiyojmand qalblarga yetkazaylik.

Bebaho tushunchalar haqida qancha so’zlsak-da, oz. Muhimi, uni tushunib yetmoqlik. Kiprik qoqqanimizda o’tgan kichik lahzada dunyoning bir chetida yangi hayot boshlangan bo’lsa, yana qayerdadir bir umrga intiho yasaladi. Shoir G’afur G’ulom aytganidek:

G’uncha ochilguncha o’tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik.



Ba’zida bir nafas olgulik muddat –
Ming yulduz so’nishi uchun yetgulik.

Umr ana shunday kutilmagan ibtido va intiholarga to’la. Bir dono insondan umr degan anglam haqida fikr so’raganlarida u shunday javob qilgan ekan: “Umr azon va namoz oralig’idagi vaqtga o’xshaydi. Sababi, tug’ilganimizda qulog’imizga aytilgan azon qazo kunimizdagi namoz uchundir”. Uni chiroyli o’tkazishimiz lozim.

Hammasi taqdirda bor. Yaxshi kun ham, yomon kun ham. Ammo qaror chiqarish o’zimizga bog’liq. Har bir lahza xotiraga aylanadi. Xotira kitobimizni esa go’zalliklar, chiroyli orzular va ezgu amallar bilan bezaylik. Zero, “yashash soatining oltin kapgiri” aylanaveradi, boshini tutgan yo’limizni to’g’ri va olg’ir qadamlar bilan bosib o’taylik.

Dilnoza JABBOROVA,
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi
ijod maktabi “Yosh ijodkorlar”
to’garagi a’zosi

• Dildagi gaplar

SHIFOKOR AVVALO TILI BILAN MALHAM BO’LSA...

Mobil telefonim jiringladi.

—Allo, eshitaman,— dedim.

— Assalomu alaykum, aka,— dedi amakimning o’g’li.

— Vaalaykum assalom.

— Uzr, aka, bezovta qilganim uchun.

Dadam shifoxonada yotibdilar,— dedi u yig’lamoqdan beri.

— Tinchlikmi? Nima bo’ldi?

—Shifokorlar “dadangizda yurak faoliyati yetishmovchiligi tufayli nafas olishi qiyinlashgan”, deyishyapti. Ayni paytda jonlantirish bo’limiga yotqizishgan.

— “Xavotir olma”, dedim-da, tezda tuman tibbiyot birlashmasiga yetib bordim.

Qisqa salom-alikdan so’ng holat bilan qiziqdim:

— Akamning ahvoli qanday?

— Yaxshi, lekin...

— Nima “lekin”?

—Shifokorlardan “dadamning ahvoli yaxshimi? Yana avvalgidek bo’lib ketadilarmi?” deb so’radim.

—Xo’sh, nima deyishdi?

—Shifokorlardan biri “E, uka, ko’rib turibsiz. Dadangiz yurak faoliyati yetishmovchiligi sabab jonlantirish bo’limida yotibdi. Bu bo’limdagi odamning ahvoli yaxshi bo’larmidi?”, dedi.

Guruch kurmaksiz bo’lmaganidek, ayrim shifokorlarimiz orasida o’ylamay gapirib, tili bilan insonning ruhiyatiga ziyon yetkazadiganlari uchrab turgani g’oyat achinarli. Avvalo o’zining shirin kalomi bilan bemorlarga va ularning yaqinlariga malham bo’ladigan shifokorlar muloyim gapirib, umid bag’ishlash o’rniga sovuq so’zlar bilan bemorni, yoki uning yaqin odamini qanchalik qayg’uga, tushkunlikka solib qo’yishini o’zingiz bir tasavvur qilib ko’ring.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrda 595-sonli “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha choratadbirlar to’g’risida”gi qarorining 1-ilovasi 1-bobining 3-bandida:

- xushmuomalalik, e’tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg’otish;

- fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qat’i nazar, ular bilan bir xil, samimiy, odob doirasida munosabatda bo’lish;

- jamiyatda axloqning umume’tirof etilgan qoidalariga amal qilish, deya belgilab qo’yilgan.

Aslida azaldan Sharq xalqlarida yozilmagan qonunlar, qoidalar yozilgan qonunlardan ustun bo’lib kelgan. Vazirlar Mahkamasi odob-axloqning belgilangan ushbu qoidalarini qabul qilmagan taqdirda ham axloqiy jihatdan shifokor bemorning farzandiga odamning ko’ngliga taskin o’rniga ko’ngilga g’ashlik soladigan gaplarni aytib, o’ylantirib qo’yishi yaxshi emas.

Qaysi soha vakili bo’lmaylik, avvalo xushmuomalimiz, shirin kalomimiz bilan odamlarning ko’nglini ko’tarsak, ularning ko’ngillariga taskin bersak, nur ustiga a’lo nur bo’ladi. Bu, ayniqsa, odamlar sog’ligini birinchi o’ringa qo’yadigan shifokorlar uchun juda muhimdir.

Bahrom BOYMURODOV

Mehr chegara bilmas

“O‘ZBEKISTONNI SOG‘INIB YASHAYMAN”, —

deydi yoqutistonlik Sargilana BAGINANOVA

Rossiya Federatsiyasining Saxa (Yoqutiston) Respublikasi fuqarolari egizak qizlar — Sargilana va Sardana Baginanovalar o‘tgan asrning 80- yillarida Toshkentdagi madaniy-oqartuv bilim yurtini tamomlagach yo‘llanma bilan viloyatimizning Sardoba tumaniga kelib, markaziy kutubxonada ish faoliyatini boshlashdi. Yoqut qizlari aslida yo‘llanmaga ko‘ra, o‘z sohalari bo‘yicha ikki yil ishlab, yurtiga qaytib ketishmoqchi edi. Lekin ular cho‘lliliklar bilan qadrdonlashib, shu yerda bir necha yil yashab qolishdi. Ayniqsa, Sargilananing cho‘lga mehri tushib qoldi va nasib etsa shu yerda bir umr qolishni ko‘ngliga tugib qo‘ydi.

Keyinchalik u tuman partiya qo‘mitasiga mas‘ul vazifaga o‘tdi. O‘zbek tilida bemalol gaplasha olganligi bois o‘sha paytda (O‘zbek tiliga davlat maqomi berilganligi to‘g‘risidagi Qonun chiqqan kezlari edi) tuman tashkilotlaridagi davlat tilida ish yuritish bo‘yicha qilingan ishlarning tahlilida ishtirok etardi. Shu tariqa Sargilana chinakam sirdaryolik bo‘lib qoldi. Lekin mustaqillik yillarining boshlarida opa-singillar ota-onasining qistovi bilan ona yurtiga qaytib ketishdi. Sargilana keyinchalik kasbini o‘zgartirdi, ya‘ni yoshligidan orzu qilgan jurnalistika yo‘nalishida faoliyat olib bordi, hozirgi kunda u Yoqutiston Respublikasidagi “Кыым” (ya‘ni “Uchqun”) gazetasi muxbiri sanaladi. Lekin yoqut qizi yuragining bir parchasi O‘zbekistonda qolgandek edi go‘yo.

2012-yili yozda S.Baginanova yurtimizga kelganida u bilan suhbatlashib, gazetaga maqola yozgan edik. Darvoqe, mehmon o‘shanda qizlariga o‘zbekcha milliy kiyimlar kiygizib, sochlarini qirqokil qilib, o‘rib kelib, bizni hayratga solgani yodimizda. Lekin o‘shanda Sargilana Sardoba tumani markaziga kelib, qarasa, o‘zbek qizlari milliy liboslarda emas, yevropacha kiyinib yurishganmish. Bundan hayratlangan mehmon uchrashgan chog‘imizda, — “qizlaringiz nega shunday chiroyli liboslarigizni kiyishmaydi, axir momolaringiz kiygan atlas ko‘ylaklar, beqasam to‘nlardan voz kechib bo‘ladimi, ular millatigizning yuzi, tashrif qog‘ozi-ku”, — deb bizni uylatirgan edi.

Undan keyin ham Sargilana bir necha marta yurtimizga sayyoh sifatida kelgan, har gal o‘zbekona, sharqona liboslarni kiyib, hammaning havasini keltirgan, eng qizig‘i, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa qadimiy shaharlarga borganida hamrohlariga o‘zi tarjimonlik qilgan. O‘tgan yili O‘zbek tiliga Davlat maqomi berilganligining 35 yilligi nishonlangan kunlarda S.Baginanova oila a‘zolari bilan yana O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Mehmon yurtimizga kelishi bilan Sirdaryoga - Sardoba tumanidagi qadrdonlari huzuriga shoshildi. Yoshligining eng serzavq, mazmunli damlari kechgan manzillarda bo‘ldi, tug‘ishganlardek bo‘lib qolgan do‘stlarining xonadonlarida mehmon bo‘ldi. Keyin sardobalik qadrdonlari bilan birga Jizzaxning Baxmal tumaniga tashrif buyurdi. Mezbonlar xonadonida, tog‘lar bag‘rida miriqib dam olishgani, dunyoga dong‘i ketgan baxmalning olmalarini shoxidan uzib yeyishning gashti haqida o‘z vatadoshlari-

(yoqutistondagilar)ga ijtimoiy tarmoqlar orqali videolavhalar, suratlar yuborib, “Men hozir O‘zbekistondaman, bu o‘lkada shunday go‘zal joylar bor”, — degan edi quvonchi ichiga sig‘may. Darvoqe, yoqut qizi har galgi tashrifi chog‘ida yurtimizni kezar ekan, milliy liboslarimiz egnidan tushmaydi. Joriy yil Navro‘z ayyomi kunlari ijtimoiy tarmoqlarda Sargilana va uning oilasi aks etgan bir nechta rasmlar va videolavhalarini ko‘rib, Sargilana tufayli bizning qadimiy sharqona bayramimiz uzoq Yoqutistonda ham

tortaman. Boisi, Sirdaryoda yashagan paytlarimda otaxon va onaxonlarning duolarini, niyatlarini ko‘p tinglaganman.

O‘zbeklar, “nimani niyat qilsang, shunga erishasan”, deb, bejiz aytishmas ekan. Bu xalqning an‘ana va urf-odatlarini oilamda ham qo‘llayman. So‘ridagi xontaxta atrofiga o‘zbekcha ko‘rpacha yoyib, (O‘zbekistondan jo‘nash oldidan qadrdonim Muxabbat Alijonova qavib bergan sakkizta ko‘rpachani pochta orqali uyimizga jo‘natib yuborgandim), dasturxon bezaymiz. Oila davrasida, turli



nishonlanganidan xursand bo‘ldik. Bundan avvalroq ham uning xonadonida bizning milliy an‘ana va udumlarga mos buyumlar, jihozlar borligi, hatto dala hovlisida o‘zbekcha so‘ri, xontaxta yasatgani haqidagi videotasvirlarni ko‘rgandik.

Sargilanani bahor bayramlari bilan qutlab, suhbatga chorladim. Yaqinda qadrdonimiz telegram kanali orqali yo‘llagan maktubini o‘qib, to‘g‘risi, ko‘zlarimga yosh keldi.

— Assalomu alaykum, aziz o‘zbek qadrdonlarim! Egizak opam bilan ikkinchi uyimizga aylangan jonajon O‘zbekistonimizni tark etganimizga 33 yil bo‘ldi. Ajoyib yoshlik yillarimizni jonajon Sirdaryoda o‘tkazdik. O‘zbekiston haqida o‘ylamagan kunim yo‘q. Tushlarimda ham uni ko‘raman. Garchi oradan shuncha vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, xuddi ertakdagidek go‘zal va betakror bu o‘lkani har kuni qo‘msab, intiq bo‘lib yashayman. O‘zbekiston – mening ikkinchi Vatanim, bu tuproq menga juda aziz, — deydi yoqut qizi Sargilana. - O‘zimning chinakam mehruhabbatimni shu ulug‘ mehmondo‘st o‘zbeklarga bag‘ishlayman. Har kuni tongda yangi kunni qarshi olarkanman, barchaga sog‘lik, tinchlik tilab, duo qilaman. Hamisha ovqatlanganimdan so‘ng yuzimga fotiha

tadbirlarda millatdoshlarimga bu quyoshli yurt, mehri-daryo o‘zbek xalqi haqida so‘zlab beraman. Uyimdagi idish-tovoqlarning yarmi O‘zbekistondan olib kelingan, ya‘ni paxta gulli kosalar, choynak-piyolalar, katta-kichik laganlar, milliy dasturxon va boshqalar. Men uyimda palov, uyg‘ur lag‘moni, manti, dimlama, mastava, o‘zbekcha non va yana ko‘p narsalarni pishirishni yaxshi ko‘raman. Farzandlarim bu sharqona taomlarga tug‘ilganlaridan beri o‘rganib qolishgan. Dasturxon atrofiga jam bo‘lib, rohatlanib ovqatlanamiz. O‘sha lahzalarda xonadonimizga O‘zbekistonning ruhi, musaffo shabadasi kirib keladi va biz bundan bahramand bo‘lamiz go‘yo. Dugonalarim ham mendan o‘zbekcha milliy taomlar pishirishni o‘rganishgan. Ikki yil oldin turmush o‘rtog‘im mening iltimosimga ko‘ra, shahar tashqarisidagi dala hovlimizda estakadali karavot, ya‘ni so‘ri yasab berdi.

Kiyim javonimdagi liboslarga kelsam, xonatlas, adras ko‘ylaklar va kamzullarim ko‘p. Barchasini O‘zbekistondan olib kelganman. Mening kolleksiyamda yevropacha uslubdagi kiyimlar kam. Ko‘p yillardan beri o‘zbekcha libosda ishgab borib, kelaman. Ko‘pchilik ayol hamkasblarim: “Nega

yevropacha yoki o‘zingizning milliy kiyimlaringizni kiyaysiz?” - deb so‘rashadi. Men ularga “Bu mening yoshligim, O‘zbekistonda o‘tgan 10 yillik umrimning mazmuni va mehmondo‘st o‘zbek xalqiga bo‘lgan muhabbatim, hurmatim hamda e‘tirofim belgisi, - deyman. - Deyarli har ikki yilda O‘zbekistonga boraman va bag‘ri keng, mehribon xalqning mehmondo‘stligidan bahramand bo‘laman. Men o‘tgan yili yurtimgizga borganimda olgan barcha taassurotlarimni videotasvirlarda hamda fotosuratlarda aks ettirganman va shu orqali Yoqutiston aholisiga O‘zbekiston, o‘zbek xalqi haqida ma‘lumot berganman. Ushbu videotasvirlar tufayli Yoqutiston aholisi haqiqiy paxta qanday bo‘lishi, shuningdek, Zominning betakror toza havosi, Zarbdor tumanidagi g‘allazorlar va hokazolar haqidagi jonli reportajlarimni ko‘rib, hayratga tushishdi. Videograf sifatida men kontentni suratga olib, gazetamizning ijtimoiy tarmoqlariga joylayman va obunachilarimdan hamisha ijobiy fikrlar eshitaman.

Bu yil ham avgust oxirida yana ikkinchi Vatanimga borishni rejalashtirganman. Shu kunlarni, qadrdon do‘stlarim, sirdaryolik jurnalistlar bilan uchrashuvlarni intizorlik bilan kutayman... Endi oilam haqida. Besh nafar farzandim ulg‘ayib, oliy ma‘lumotga ega bo‘lishdi. Katta qizim Nyurbini tarix fani o‘qituvchisi, Zulfiya modeler va texnolog bo‘lib ishlaydi. Bu qizimga O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonimning ismini qo‘yganimdan faxrlanam. Ivanna me‘mor, o‘g‘illarim Algis va Ayxal hali talaba. Hozir 7 yoshli nabiram Bobojonga o‘zbek tilini o‘rgatyapman. U hamma narsani juda yaxshi bajaradi, so‘zlarni tezda eslab qoladi va gapirishga harakat qiladi. Dam olish kunlari biznikiga kelganida, “Buvijon, ba‘zi so‘zlarni unutib qo‘yishimga oz qoldi, yana ko‘proq o‘rgating, meni ham O‘zbekistonga olib boring”, - deydi. Xolida opa, 2012-yil avgust oyida Sirdaryoga borganimda gazeta uchun siz men bilan suhbatlar uyushtirgandingiz. O‘sha maqola men va oilam uchun eng qimmatli narsa sanaladi. Esingizdami, o‘shanda men to‘rt nafar farzand bilan

Ha, yurtimizda bir muddat yashagan bo‘lsa-da, unutilmas taassurotlar, xalqimizga bo‘lgan mehruhabbatiniyo‘qotmagan ijodkor do‘stimizning yurak tubidan chiqayotgan ushbu gaplar (bitiklar)ni hayajon bilan o‘qiymiz. Xalqimiz bejiz, bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber, demaydi. Sargilana Baginanova har gal biz bilan ijtimoiy tarmoq orqali bog‘langanida yoki qo‘ng‘iroq qilganida yurtimizdagi yangiliklardan so‘raydi, qadrdon do‘stlariga salom yo‘llaydi. Biz ham yoqutistonlik hamkasbimizni sog‘inib, kutib qolamiz.

Xolida PARDABOYEVA.

Suratlarda: Sargilana Baginanova va uning oilasi.



O‘zbekistonga borganimda o‘zbek qizlari o‘zbek xonatlas ko‘ylagida emas, balki tor jinsi shim va kalta kofta kiyib yurganlarini ko‘rib, hayron bo‘lganim va bundan juda xafaligimni aytgandim. Qizlarim va o‘g‘illarim o‘shanda hatto tahririyatga o‘zbekcha liboslarda, boshlariga do‘ppilar kiyib borishgan edi. Joriy yilda O‘zbekistonda, shu jumladan, Sirdaryoda juma kuni “milliy liboslar kuni” deb e‘lon qilingani juda zo‘r voqea bo‘libdi. Millatingiz qadriyatlarigizdan biri bo‘lgan adras, atlas va beqasamdan tikilgan liboslarning kundalik hayotingizga yana qayta kirib borganidan juda xursandman. Hammangizni yaxshi ko‘raman, azizlarim. Men hech qachon “xayr” demayman, hamisha, “Keyingi safar ko‘rishguncha”, deb qolaman.

Sargilana Baginanova, “KYYM” (“Uchqun”) respublika gazetasi muxbiri, Rossiya Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi. Rossiya Federatsiyasi, Saxa Respublikasi.”

ALVIDO, QADRDON DO‘ST!

Attang! Attang! Sirdaryo ziyolilar olami yana bir aziz oydinidan ayrildi. O‘zbekiston Respublikasi “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi Sirdaryo viloyat bo‘limining raisi, ajoyib inson Hakimjon Yunusov bandalikni bajo keltirdilar.

Hakimjon Yunusov to‘rt-besh kun oldin kasalxonadan sim qoqib qoldilar. Ovozlarini sinig bo‘lsa-da, ruhiyati tiniq edi. “Menga Rauf Parfi va Musa Jalilning falon-falon she‘rlarini tashlab bersangiz. Inshaalloh, o‘qib, bahra olardim”, dedilar. Ha, orzu-niyatlari ko‘p edi.

Bir kun o‘tib, kasalxonaga bordim. Og‘irxonada davanayotgan ekan. Huzurlariga kiritishmadi. Xomsut emgan men banda palataga chiqsa, borarman, charchatib qo‘ymay, debman. Biroq bandasining aytgani bo‘lmas ekan. Armondaman.

U kishi nomi katta harflar bilan yozilgulik INSON edilar. O‘ylagani Vatan taraqqiyoti, millat birligi edi. Peshona teri bilan topgan sarmoyasini o‘tib kelayotgan yosh avlod kamoliga sarflashdan hecham qisnmasdi. Nihoyatda qo‘li ochiq, Hotamtoy inson edi. Yigirma yildan buyon o‘zi tahsil olgan Boyovut tumanidagi 49-umumta’lim maktabiga otaliq qilardi. Bu davr orasida Hakimjon Yunusov maktab kutubxonasini 1000 jilddan ziyod badiiy adabiyotlar bilan boyitdi. Olti yildirki, eng a’lochi o‘quvchilar, eng yaxshi



• Armonli satrlar

o‘qituvchilarga o‘z hisobidan stipendiyalar joriy qilib, barcha-barchaga motivatsiya berib yurardi.

Hakimjon Yunusov oilada mehribon ota, ko‘ngilyaqin insonlariga haqiqiy do‘st edi. Yaxshi-yomon kunlarida hamisha qadrdonlarining yonida bel bo‘lib turardi.

Hakimjon Yunusov yaxshigina siyosatchi va kitobxon edi. Viloyatimiz shahru qishloqlari, ko‘chyu xiyobonlarini savodli ko‘rgazmali vositalar bilan ta’minlashda xizmatlari benihoya katta. Bejiz u kishiga “Tasviriy targ‘ibot fidoyisi” ko‘krak nishoni berilmagan. Aslida Hakimjon Yunusov bundan-da, katta Davlat mukofotlariga loyiq edi.

Albatta, eng katta mukofot bu — el-yurt hurmati. El koriga yaranagan insonni Yaratgan ham yarlaqaydi. Iloho, do‘stimiz Hakimjon Yunusovni Olohim o‘z rahmatiga musharraf etsin! Joylarini jannati naimlardan ato qilsin!

Muhammadali AHMAD

PENSIYA YAXSHI MIQDORDA CHIQISHI UCHUN NIMALAR QILISH KERAK?

Pensiya tizimida o‘z kelajagingizni xavfsiz va barqaror qilish uchun bir nechta muhim qadamlarni qo‘yishingiz lozim. Bu qadamlar yordamida sizning pensiyangiz yillar o‘tishi bilan yaxshilanadi va kelajakda moliyaviy farovonlikni ta’minlaydi.

• Ma’lumot

Pensiya tizimiga erta qo‘shilish, davomli to‘lovlar amalga oshirish va qo‘shimcha sarmoyalar kiritish orqali siz kelajakda yaxshi pensiya olish imkoniyatini oshirasiz. Bu barqaror va xavfsiz kelajak uchun muhim qadamdir.

Avvalo, aytib o‘tish joizki, pensiya miqdori ish stajiga ham ish haqiga ham bog‘liq hisoblanadi. Pensiyaga

chiqish uchun fuqaroning ish staji yetarli bo‘lsa, lekin ish haqi kam bo‘lgan taqdirda ham pensiya miqdori yuqori chiqmasligi mumkin. Aksincha, ish haqi yuqori bo‘lib, lekin ish staji kam bo‘lsa, bu ham pensiya miqdori kam chiqishiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Eslatib o‘tamiz, pensiyani hisoblashda fuqaroning oxirgi 10 yillik mehnat faoliyatidan istalgan ketma-ket 5 yillik davrning ish haqi inobatga olinadi. Shuning uchun, fuqarolarimizga ham ish stajiga, ham ish haqlariga e’tiborliroq bo‘lishlarini maslahat beramiz.

Bu haqidagi batafsil ma’lumotlarni “Ishonch” telefonlarimiz hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizdan ham bilib olishingiz mumkin.

Quvonchbek HAMDAMOV,
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Sirdaryo viloyat boshqarmasi boshlig‘i

• E’tirof

MILLIY LIBOSLARIMIZ HAMMAGA YARASHADI

Yangiyer shahar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limida har haftaning juma kuni o‘zgacha ruhda, milliy qadriyatlarimizni ulug‘laydigan tarzda o‘tkazilmoqda. Sababi bo‘limda har juma kuniga “Milliy liboslar kuni” sifatida qaralmoqda. Bu tashabbus xodimlar o‘rtasida katta qiziqish bilan kutib olinib, milliylikka e’tibor yanada kuchaymoqda. Bu kabi tashabbuslar milliy o‘zligimizni mustahkamlashda, sog‘lom va ma’naviy barkamol jamiyatni barpo etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy libos bu oddiy kiyim emas, bu tarix, bu madaniyat, bu o‘zligimiz timsolidir. Har bir atlas, har bir adras, har bir zarli do‘ppi xalqimizning bir necha ming yillik urf-odatlarini va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etadi. Aynan shu bois bo‘lim xodimlari milliy libosda ishga kelish orqali nafaqat tashqi qiyofani bezatmoqda,

balki ichki ruhiyatni, milliy iftixorni ham yuksaltirmoqda.

—Milliy libosimizni kiygan kunim o‘zimni yanada baquvvat, g‘ururli va shijoatli his qilaman. Bu liboslar yuragimdagi Vatanga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otadi, — deydi bo‘lim boshlig‘i Baxtiyor Hayitov.

Bu kun xodimlar uchun o‘z milliy liboslarini faxr bilan namoyish etish, bir-biriga iliq kayfiyat ulashish, do‘stona muhitda ishlash imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga bu tashabbus yosh avlodga milliy merosni asrab-avaylash, uni kundalik hayotda qo‘llashga da’vat bo‘lib xizmat qilmoqda.

Milliy libos — bu bizning ildizimiz. Uni kiyib, o‘zligimizni unutmaslikni, qadriyatlarimizga sodiq qolishni namoyon qilamiz.

—Har juma kuni bo‘limda bayramga o‘xshash ruh bo‘ladi.



Milliy liboslar xodimlar orasida ilqlik, birlik va totuvlik muhitini yaratmoqda,—deydi ijro intizomi mutaxassisi Kamola Tursunova.

Milliy liboslar nafaqat bizga, balki biz bilan birga yashayotgan barcha yurtodoshlarimizga, hatto chet elliklarga ham ilhom va go‘zallik bag‘ishlaydi. Chunki milliylik — bu jamiyatning yuragi, hech qachon modadan qolmaydigan bebaho boylikdir.

Hojiakbar SAFAROV,
Yangiyer shahar SEO va JS bo‘limi matbuot kotibi

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda radiochastota spektridan foydalanuvchilarning majburiyatlari va huquqlari aniq belgilab berilgan. “O‘zkomnazorat” inspeksiyasining Sirdaryo viloyati hududiy shu’basi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish, ular tomonidan qonunchilik talablari buzilishining oldini olish va ular faoliyatida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qilinmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 801-sonli qarori 3-ilovasi bilan qabul qilingan “Radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalarni sotib olish (berish), sotish va (yoki) o‘rnatish (qurish), olib kirish, ulardan foydalanish tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni tashkil etish hamda radioxalqitlarni bartaraf etishda vazirliklar va idoralarning o‘zaro hamkorligi to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq Sirdaryo viloyatida tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda har oyda tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Ammo hamkorlikda olib borilgan sa’y-harakatlarga hamda o‘tkazilgan tadbirlarga qaramasdan radioelektron vositalar va yuqori chastota qurilmalardan foydalanishda qonunbuzilish holatlari aniqlanmoqda.

Jumladan, “O‘zkomnazorat” inspeksiyasining Sirdaryo viloyati hududiy shu’basi, Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi hamda Sirdaryo viloyati Elektromagnit moslashuv xizmati xodimlari hamkorligida Guliston shahar va Yangiyer shahar hududi bo‘ylab noqonuniy radioelektron vositalardan foydalanishning oldini olish yuzasidan tezkor tadbir o‘tkazildi.

Tadbir davomida Guliston shahrining “Yangi hayot”, “Namuna”, “Bog‘ishamol” va “Taraqqiyot”



• Talab va ijro

Qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi

mahallalari hamda Yangiyer shahrining “Davlatobod” va A.Jomiy nomli mahallalarida joylashgan umumiy ovqatlanish shahobchalari, bolalar o‘yingohi hamda ko‘p qavatli qurilish maydonlarida 6 nafar yuridik shaxslar tomonidan noqonuniy tartibda ishlatilayotgan “Baofeng” BF-888S rusumli 23 ta radioelektron vositasidan tegishli ruxsatnomasiz noqonuniy foydalanib kelayotganligi aniqlandi.

Tadbir davomida mazkur qonunbuzarlik holati yuzasidan tadbirkorlik subyektlariga radioelektron vositalaridan foydalanishga tegishli ruxsatnoma rasmiylashtirilgunga qadar foydalanish taqiqlandi hamda tegishli tartibda olib qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda 1-sonli Qonunining 14-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 801-sonli qarori 2-ilovasi bilan qabul qilingan “Radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalarni sotib olish (berish) va (yoki) o‘rnatish (qurish), olib kirish, foydalanishga ruxsat berish tartibi to‘g‘risida Nizom” talablariga rioya qilinmaganligi sababli tadbirkorlik subyektlarining mansabdor shaxsiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks”ning 152-moddasi 1-qismi bilan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma rasmiylashtirilib, kodeksning 245-moddasi uchinchi qismi talablariga muvofiq, mazmunan ko‘rib chiqishlik uchun dastlabki ish materiallari Jinoyat ishlari bo‘yicha Guliston shahar va Yangiyer shahar sudiga yuborildi.

Radioelektron vositalar va yuqori chastota qurilmalarni Respublika hududiga olib kirish uchun ruxsatnoma olish va o‘rnatilgan tartibda ro‘yhatdan o‘tkazish, rasmiylashtirish masalalari bo‘yicha Sirdaryo viloyati Elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

Mahbuba RAXMATBAYEVA,
“O‘zkomnazorat” inspeksiyasining Sirdaryo viloyati hududiy shu’basi Telekomunikatsiyalar va pochta aloqa tarmoqlarini nazorat qilish bo‘yicha yetakchi mutaxassisi

MEHNAT QILGAN ELDA AZIZ

Kasaba uyushmalarining faol ishtirokini tashkil etish hamda korxona, tashkilot va muassasalarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar va ularning oila a'zolarini turizmga jalb etilishini yanada rivojlantirish, shuningdek, mamlakatimiz bo'ylab sayohat qilish hamda boy madaniy-tarixiy meros va o'ziga xos tabiiy maskanlar bilan yaqindan tanishish maqsadida boshlang'ich tashkilotlarda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" ichki turizm dasturi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi munosabati bilan aprel oyi mobaynida viloyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining turli jabhalarida mehnat qilayotgan bir guruh ishchi-xodimlarning ko'hna va navqiron Samarqand shahriga, Xiva va Urganch shaharlariga, Toshkent shahriga, bundan tashqari, Xo'jamushkent ziyoratgohiga sayohatlari uyushtirildi.

Sayohatchilar yurtimizning ham tarixiy, ham zamonaviy qiyofasi bilan yaqindan tanishish baxtiga musharraf bo'ldilar. Tabarruk qadamjolarini ziyorat qilish, albatta, insonga tetiklik va ruhiy zavq bag'ishlaydi. Shu sababdan ham vohamiz ahlini tabarruk qadamjolar va yurtimizning xushmanzara go'shalariga ham sayohatlari tez-tez tashkillashtirib turilibdi. Bu ham odamlarimizning ona yurtimiz tarixi, qadriyatlarini, obidalarini bilan yana bir karra yaqindan tanishib olishga zamin yaratdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Sirdaryo viloyat Kengashi tashabbusi bilan "Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni"ga bag'ishlangan "Mehnat muhofazasining yangi bosqichi: ish joyida sun'iy intellekt va

• Tafsilot



raqamlashtirishning roli" mavzusidagi davra suhbatlari o'tkazib kelinmoqda.

Tashkilot va korxonalarda bu kabi uchrashuv va seminarlarning tashkil etilishi har bir soha xodimlarining o'z mehnatini qadriga yetishiga, yaratilgan imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanishlariga xizmat qiladi.



X. AMINOV,
O'KUFning viloyat Kengashi
bo'lim mudiri,
A. HAKIMOV,
O'KUFning viloyat Kengashi
mehnat texnik inspektori

Mutaxassislar minbari

AYRIM MAHSULOTLARNI YETISHTIRISHDA ISTIQBOLDAGI REJALAR

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish va qayta ishlash zanjirini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



Eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar 2025-yil 10-aprelda qabul qilingan PQ-136-sonli Prezident qaroriga 2-ilovada respublika hududidagi ayrim mahsulotlarning istiqbolli ko'rsatkichlari aytib o'tilgan. Xususan, mamlakatimizda va viloyatimizda bunday istiqbolli rejalarini amalga oshirish qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jozibadorligini ko'paytirish orqali erishiladi. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini ko'tarish, yer resurslaridan samarali foydalanish, qayta ishlash, saqlash va kooperatsiya tizimini joriy etish bo'yicha belgilangan qo'shimcha chora-tadbirlarni bajarish lozimligini anglatadi. Ushbu qarorga ko'ra, viloyatimiz qishloq xo'jaligida eng ko'p yetishtiriladigan qovun va piyoz ekinlarining istiqboldagi rejalarini tahlili

quyidagicha ko'rinishda:

2025-yilda Yevropa davlatlari, Arab davlatlari, Xitoy, Yaponiya, Buyuk Britaniyaga birgina qovun eksportini 1 milliard 57 million 800 ming AQSH dollariga, 2026-yilda esa 1 milliard 375 million 100 ming AQSH dollariga eksport qilish rejalashtirilgan.

2025-yilda Yevropa davlatlari, Arab davlatlari, AQSH va Yaponiyaga piyoz mahsuloti eksportini 2 milliard 648 million 400 ming AQSH dollariga, 2026-yilda esa 3 milliard 442 million 900 ming AQSH dollariga istiqboli rejalashtirilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan bunday milliardlab eksport salohiyatini amalga oshirish uchun bizning salohiyatimiz va imkoniyatlarimiz albatta yetarli. Muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan so'nggi

yillarda jahon bozoriga chiqish, unda munosib o'rin egallash uchun qator chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Bugungi kunda dehqon-fermerlarimiz, tomorqa yer egalari, issiqxona xo'jaliklari egalari o'z yerlaridan unumli va samarali foydalanmasalar, soliqni bir necha barobar yuqori to'lashligini ta'kidlab borishimiz lozim. O'z navbatida biz—karantin inspektorlari issiqxonalarda, dehqon-fermerlar va tomorqa yer egalari mahsulotlarini turli zararkunandalardan asrash choaralarini ko'rsatishimiz, o'rgatib borishimiz shart. Shundagina yerga qadalgan urug'dan yuqori va sifatli hosil olishni kafolatlashimiz mumkin. Bu esa Prezidentimizning PQ-136-sonli qarorida belgilangan istiqbolli rejalarini bajarishimizga asos bo'ladi, deya olamiz.

O. ABDULLAYEV,
Sh.KUCHMURATOV,
"Xovosobod" O'KCHM
inspektorlari

Fuqaro Norbekov Xayrullo Narzullayevich nomiga viloyat IIB Moliyaviy ta'minot xizmati pensiya ta'minoti bo'limi tomonidan 2007-yilda 1926 raqamli nogironlik bo'yicha berilgan pensiya guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Fuqaro Almatatova Parvina Faxriddinovna nomiga Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarini malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Guliston filiali tomonidan 01.06-28.06.2023-yilda "Laboratoriya ishida zamonaviy tekshiruv usullari" ixtisosligi sikli bo'yicha berilgan 003481 raqamli sertifikatini yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Davtexnazoratning Sirdaryo viloyati Guliston tuman bo'limi tomonidan 06.10.2014-yilda Roxmonberdiyev To'ychiy Rasuljon o'g'li nomiga berilgan TMG 003969, TOT 003969 raqamli traktorchi-mashinist guvohnomasi va ogohlantirish taloni yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Sardoba tumani Paxtaobod shaharchasi Sanoat ko'chasi 4-uy, 6-xonadon uchun Sirdaryo viloyati Sardoba tumani xo'jalik xisobidagi yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri xizmati davlat unitar korxonasi tomonidan 2013-yilda Amirkulova (Djurayeva) Zuxra Amirkulovna nomiga berilgan 120505020205270004006 raqamli kadastr hujjati yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

• Statistika

NATIJALAR QUVONARLI

Sirdaryo viloyatining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish bo'yicha o'sishlar ijobiy darajaga yetgani quvonarli.

2025-yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi 2 803,8 milliard so'mni, o'sish sur'ati 108,8 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 3 006,1 ming so'mdan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 foizdan iborat bo'ldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni yashash va ovqatlanish xizmatlari egalladi. 2025-yil yanvar-mart oylarida ushbu xizmatlarning ulushi 27,4 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar 19,4 foizni, savdo xizmatlari 15,9 foiz, transport xizmatlari 10,8 foiz, shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha 4,6 foiz hisobida qayd etildi.

Hurmatli tadbirkorlar! Davlat statistika hisobotlarini eStat 4.0 elektron platformasi orqali o'z vaqtida yuborishni unutmang.

Azizzxon QURBONOV,
viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi boshlig'i

KO'RSATKICHLARDA O'SISH

2025-yil yanvar-mart oylarida viloyatda faoliyat yuritayotgan 1100 ta sanoat korxonalari shundan 45 ta yirik, 1055 ta kichik korxonalar tomonidan 4 744,1 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Ushbu ko'rsatkichni tarmoqlar kesimida oladigan bo'lsak, ishlab chiqariladigan sanoat tarmog'i 58,6 foiz bilan yuqori ulushni qayd etilgan edi. Natijalarni mahsulotlar kesimida oladigan bo'lsak, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati 12,8 foizga, farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoati 89,2 foizga, boshqa noometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati 38,1 foizga, metallurgiya sanoati 2,1 martaga, Avtoransport vositalari trelerlar va yarimpritseplar ishlab chiqarish sanoati 41,7 foizga oshganligi kuzatildi.

Hududlar kesimida sanoat hajmidagi eng yuqori o'sish sur'atini Yangiye shahrida 118,4 foiz, Boyovut tumanida 112,6 foiz, Sardoba tumanida 112,1 foiz, Sayxunobod tumanida 109,5 foiz, Mirzaobod tumanida 109,2 foizni tashkil qilib, viloyat sanoati ko'rsatkichlarida yuqori o'sishga erishildi.

Hurmatli tadbirkorlar! Davlat statistika hisobotlarini eStat 4.0 elektron platformasi orqali o'z vaqtida yuborishni unutmang.

SH. O'RAZALIYEV,
viloyat statistika boshqarmasi
Sanoat va energetika statistikasi bo'limi boshlig'i

O'tganlarning oxirati obod bo'lsin

"Yangi Sirdaryo", "Novaya Sirdarya" gazetalari tahririyati jamoasi "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi Sirdaryo viloyati bo'limi boshlig'i

Hakimjon YUNUSOVning
vafoti munosabati bilan oila a'zolariga, yaqin qarindoshlariga chuqur hamdardlik bildirib, ta'ziya izhor qiladi.

• Tanlov

“AYOL – QADRIYATLAR DAVOMCHISI”

Yaqinda viloyat Oila va xotin-qizlar boshqarmasida “Ayol – qadriyatlar davomchisi” mavzusidagi milliy marosim va urf-odatlar tanlovining viloyat bosqichi bo’lib o’tdi.

Tanlovda ishtirok etgan shahar va tumanlarning 9 ta jamoasi “Vatanga muhabbat eng muqaddas tuyg’u”, “Onalar — millat tarbiyachisi” hamda “Milliy qadriyatlar — millat ko’zgusi” shartlari bo’yicha o’zaro bahslashdilar.

Jamoalar o’z chiqishlarida asrlar osha yashab kelayotgan milliy qadriyatlarimiz sanalgan turli marosimlar, an’ana va urf-odatlarini o’zida mujassam etgan sahna ko’rinishlari, kompozitsiyalar hamda xalqona qo’shiq va laparlar, shuningdek, bolalar milliy o’yinlarini belgilangan vaqt davomida namoyish etdilar. Jamoalar o’z chiqishlarida uchta shartni ham

qamrab olishga harakat qilishdi.

Tanlovni Xovos tumani jamoasi boshlab berdi. Tumandagi 6-umumiy o’rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi Xolida Fayzullayeva dastlab belgilangan shartlar bo’yicha qisqacha tushuntirish bergach, folklor guruhining musiqali chiqishi havola etildi. Bunda ko’proq 2-shart mazmuni aks etdi.

Sardobalik hunarmand Oydinoy Xoliqova 40 yildan beri chevarlik bilan shug’ullanib kelmoqda. U tikkan, to’qigan buyumlarning, shu jumladan, quroq choyshab, yostiqlik, kashtalar, gilam va zulbaroqlarni sanab, adog’iga yetolmaysiz.



Ularga qarab, oddiy qishloq ayolining igna va ip bilan san’at asarlari yaratayotganiga guvoh bo’lasiz. Darvoqe, chevar ayol hamqishloqlarining ko’rpa-to’shaklar, choponlar tikish uchun bergan buyurtmalarini ham bajaradi. Oydinoy Xoliqova tayyorlagan milliy buyumlarga barchaning havasi keldi.

Boyovut tumanining “Gulbog” mahallasi ayollari alyor-u o’lanlarni maromiga yetkazib ijro etishdi. Muhabbat Qurbonova xalqona qo’shiqlarga chanqovuz chalib,

jo’r bo’ldi.

Birin-ketin boshqa tuman va shaharlar jamoalari o’z san’atlarini namoyish etishdi. Ayniqsa, Yangiyer shahridagi “Navro’zobod” mahallasidagi besh tashabbus namunalari aks etgan xonadon bekasi Bonu Mamatova rahbarligidagi “Ayajonlar” dastasining chiqishlari barchaning e’tiborini tortdi. Namoyish etilgan kompozitsiyada bir necha lavhalar, ya’ni qadimiy qo’l mehnati turlari, shuningdek, “Qiz uzatish”, “Chimildiq udumlari”, “Kelinsalom” kabi

marosimlar aks etdi. Guliston tumani jamoasining chiqishlari ham o’ziga xosligi bilan ajralib turdi. She’riy kompozisiya tanlovning uchta shartini ham qamrab oldi.

Tanlov yakuniga ko’ra, 1-o’rinni Yangiyer shahridagi “Navro’zobod” mahallasining “Ayajonlar” jamoasi egallab, tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish uchun yo’llanmani qo’lga kiritdi. 2-o’rinni Guliston tumanidagi “Ibrat” hamda “Tajribakor” mahallalarining ayollaridan tarkib topgan “Jon qo’shnilar” jamoasi egalladi. 3-o’rin Boyovut tumanidagi “Gulbog” mahallasining “Chapani ayollar” jamoasi hamda Shirin shahar Amir Temur nomli mahallaning “Xushovoz onalar” jamoasiga nasib etdi.

G’oliblarga hamda barcha ishtirokchilarga ham “Tashakkurnoma”lar hamda kitoblar topshirildi.

X.ESHONQULOVA

Suratda: 1-o’rinni egallagan “Ayajonlar” jamoasi

SIRLI, SEHRLI QO’LLAR

“Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”ga bag’ishlab o’tkazilgan Xalqaro an’anaviy “Tasviriy va amaliy san’at festivali”ning ochilish va yopilish marosimlari O’zbekiston badiiy akademiyasi tasarrufidagi Sirdaryo ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internatida bo’lib o’tdi. Besh kun davom etgan festivalda Guliston davlat universiteti, Guliston pedagogika instituti, viloyat ixtisoslashtirilgan san’at maktabi talabalari va viloyatdagi barcha musiqa maktablarining iste’dodli o’quvchilari o’zlarining eng sara asarlari bilan ishtirok etishdi.

Festival doirasida O’zbekiston Badiiy akademiyasi, Badiiy ijodkorlar uyushmasi, uyushmaning viloyat bo’limi hamda O’zbekiston Badiiy Akademiyasi tasarrufidagi Sirdaryo ixtisoslashtirilgan maktab-internat hamkorligida “Sirli, sehrlil qo’llar” ko’rgazmasi tashkil etildi. Festival munosabati bilan poytaxtimizdan tashrif buyurgan bir guruh taniqli rassomlar O’zbekiston san’at arbobi Zayniddin Faxriddinov, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi Murtazo Irgashev ixtisoslashtirilgan maktab-internatda tashkil etilgan ko’rgazmaga qo’yilgan hamda tuman va shaharlar Bolalar musiqa va san’at maktablaridagi ko’rgazmalarni ko’zdan kechirdilar hamda o’quvchilarga mahorat darslari o’tdilar.

O’zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan maktab-



• Festival

internatda bo’lib o’tgan festivalning yopilish tantanasi chin ma’noda tasviriy va amaliy san’at bayramiga aylanib ketdi. Tadbirga tashrif buyurgan mehmonlar, o’quvchilarning ota-onalari maktab-internat hovlisida tashkil etilgan ko’rgazmalarni tomosha qilishdi.

Ixtisoslashtirilgan maktab-internat baydagi havaskorlari tomonidan tayyorlangan konsert dasturi barchaga xush kayfiyat ulashdi.

Viloyat Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Murod Hayitov anjuman ishtirokchilarini viloyat hokimi nomidan qutlab, festival keng qamrovli va mazmunli o’tganligini ta’kidladi.

Tantanada Zayniddin Faxriddinov hamda Murtazo Irgashevga “Burch, sadoqat, matonat” ko’krak nishonlari, shuningdek, erkin ijodkor Zulxumor Xummatovaga O’zbekiston Mudofaa

vazirligining “Madaniyat, san’at sohasida ko’rsatgan xizmatlari uchun” medali topshirildi.

Shundan so’ng festivalda faol ishtirok etgan yosh ijodkorlar viloyat hokimligi, respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Respublika Badiiy ijodkorlar uyushmasi viloyat bo’limlari hamda homiy tashkilotlar tomonidan diplomlar, kitoblar hamda esdalik sovg’alar bilan taqdirlanishdi. Festivalda faol ishtirok etgan iqtidorli o’quvchi-yoshlardan 12 nafari festivalning oltin, kumush va bronza medallariga sazovor bo’lishdi.

Tadbirding eng hayajonli daqiqalari festival g’oliblariga O’zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Badiiy ijodkorlar uyushmasining oltin, kumush hamda bronza medallarini topshirish damlari bo’ldi.

Kamola Xudoyberdiyeva, Lobarxon Olimova hamda Gulsevar Saydullayevalar oltin



medallar bilan taqdirlandilar. Festivalning O’zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko’rgazmalari zalida bo’lib o’tgan yopilish qismida Sirdaryo ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internatining haykaltaroshlik bo’limi 8-sinf o’quvchisi Nodir Ergashev oltin, dastgohli rangtasvir rassomi bo’limi 10-sinf o’quvchisi Jo’rabek Bahodirov kumush medalga sazovor bo’lishdi. Shuningdek, har yili festival doirasida an’anaviy tarzda o’tkazib kelinadigan 15-17 yoshgacha bo’lgan ijodkorlar orasidagi “Kamoliddin Behzod izdoshlari” miniatyura va xalq amaliy san’ati tanlovining “Eng yaxshi grafik asari” uchun nominatsiyasida dastgohli rangtasvir rassomi bo’limi 10-sinf o’quvchisi Azizbek Mamarasulov faxrli 2-o’rinni egallab, tanlov diplomi va esdalik sovg’alari bilan taqdirlandi.

Tadbir so’ngida maktab

internati libos dizayneri o’qituvchilari Dilafruz Allayorova hamda Muxbira Boboyeva «Difa High Fashion» brendi ostida shogirdlari va maktab-internatining dizayn yo’nalishi o’quvchi qizlari bilan milliy, etno va zamonaviylik uyg’unlashgan avangard uslubdagi liboslar kolleksiyasini namoyish etishdi.

Tadbirdan so’ng poytaxtdan kelgan mehmonlarni suhbatga chorladik.

— Bu yilgi festivalning qamrovi keng bo’lganligi va unga tashkilotchilar tomonidan qizg’in tayyorgarlik ko’rilganligini dastlabki kundanoq his etdim, — dedi Murtazo Irgashev. — Festival doirasida tashkil etilgan ko’rgazmalarda namoyish etilgan asarlarni ko’zdan kechirar ekanmiz, Sirdaryoda iste’dodli ijodkorlar ko’pligiga va ularning tasavvurlari kengligiga guvoh bo’ldim. Shu sababli ko’rgazmaga qo’yilgan asarlarni baholash ancha qiyin kechdi. Meni quvontirgan yana bir jihat bu yerda barcha yo’nalishlar bo’yicha ustoz va shogird an’analari yaxshi yo’lga qo’yilganligi hamda ular o’rtasida o’ziga xos mehr borligidir. Shogirdlar puxta bilim olib, ustozlaridan san’at sirlarini o’rganayotganliklari hamda ularni amalda qo’llayotganliklaridan xursandman. Kelajakda Sirdaryodan hali ko’plab mohir rassomlar, amaliy san’at ustalari yetishib chiqishiga ishonaman.

Taqdirlash marosimi tugagan bo’lsa ham ko’rgazmalar oldi hamon gavjum va festival haqidagi suhbatlar tugamagan edi.

Xolida PARDABOYEVA
Suratlarda: festivaldan lavhalar

YANGI SIRDARYO

Bosh muharrir:
Bahrom BOYMURODOV

Muassis: Sirdaryo viloyati hokimligi

2020-yil 25-iyunda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasida 10-023 raqami bilan ro’yxatga olingan.

TELEFONLAR:
Qabulxona: (33) 355-07-45,
O’rinbosar: (94) 955-54-02,
Bo’limlar: (93) 271-51-58,
(99) 913-11-56, (99) 476-82-19,
reklama va e’lonlar:
(99) 646-07-45.

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Chop etilgan maqolalardagi ma’lumotlar va raqamlar to’g’riligi uchun javobgarlik muallif zimmasida.

Gazeta “Yangi Sirdaryo” tahririyati kompyuter markazida terilib, sahifalandi. A-3 formatda, 8 sahifada 2 bosma taboq ofset usulida “SHARQ” NMAKda 4 000 nusxada chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent sh., Mirobod tumani, Buyuk Turon ko’chasi, 41-uy. Tel.: (71) 233 11 07. Buyurtma 1-448

Bizga yozing: 120100. Guliston shahri, Navoiy shohko’chasi, 30-uy. Telegram: @yangisirdaryogazetasi Facebook: Yangi Sirdaryo gazetasi Instagram: @yangisirdaryogazetasi Website: sirdaryo24.uz YouTube: Yangi Sirdaryo 24

NAVATCHI:
M.AHMEDOV

Nashr ko’rsatkichi 459.
ISSN 2181-5984
Topshirish vaqti - 19.00
Topshirildi - 22.30
28.04.2025-yil

—Tijorat materiali
Sotuvda erkin narxda